EURASIAN JOURNAL OF LAW, FINANCE AND APPLIED SCIENCES
Innovative Academy Research Support Center
UIF = 8.3 | SJIF = 5.961 www.in-academy.uz



JINOYATCHI SHAXSI TUSHUNCHASI VA JINOYATCHILIKNI OLDINI OLISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Qurbonova Aziza Davlat qizi
SamDU psixologiya yo'nalishi, 3-bosqich talabasi

https://doi.org/10.5281/zenodo.6725458

ARTICLE INFO

Received: 28th May 2022
Accepted: 02nd June 2022
Online: 05th June 2022

KEY WORDS

Jinoyatchi, jinoyatchi psixologiyasi, kriminalogiya, jinoiy guruhlar, tormozlanish holati, ongsizlik, emotsiya, affekt, steriotip, irsiyat, ta'lim tarbiya, referent guruh

ABSTRACT

Ushbu maqolada har bir jamiyatga xos bo'lgan, og'riqli masalalardan biri bo'lgan jinoyatchilik, uning kelib chiqish sabablari va jinoyatchi ruhiyatida sodir bo'ladigan o'zgarishlar haqidagi ma'lumotlar bayon qilingan. Shuningdek, jinoyatchilikni oldini olish va unga qarshi kurashish va huquqbuzarni reabilitatsiya qilish bo'yicha o'rganilgan narsalardan foydalanishdan tashqari, jinoyatchining motivlari va shaxsini o'rganilingan. Bularning barchasiga asoslanib, qamoqxonalarda, ruhiy salomatlik markazlarida va sudlarda jinoyatchilikka aloqador shaxslar bilan suhbatlar o'tkazishda va huquqbuzarliklarning oldini olish dasturlarini ishlab chiqishda jinoyat psixologining figurasi ajralib turishi tahlil qilingan.

Jahonda globallashuv jarayoni tobota shiddatli tus olayotgan, dunyo mamlakatlarining inson manfaatlariga xizmat qiladigan tom ma'nodagi demokratik yo'lni tanlab olishga bo'lgan intilishi kuchaygan bir sharoitda yuridik psixologiyaning roli kun sayin ortib bormoqda. Shuni ta'diklash joizki, huquqni muhofaza qiluvchi organlar sohasida inson faoliyatini tadqiq qilar ekan, psixologik bilimlarning o'rganishning o'rni juda katta. Insonni, uning shaxsini, asosiy holatlarini, jarayonlarini, masalan, temperamenti, xarakteri, motivi, ehtiyoji, maqsadi, ijtimoiy yo'nalishi va shaxsning tavsifini o'rganish yridik faoliyatda muhimdir.

Jinoyatchi shaxsini o'rganishdan oldin o'zi jinoyatchi deb kimlarni ayta olishimizni bilishimiz kerak. "Jinoyatchi" tushunchasi kriminologiya nuqtai nazaridan o'z ichiga mahkumni ya'ni qonunan kuchga kirgan sud hukmi asosida jazoni o'tayotgan shaxsni ham, jinoiy qilmish sodir etgan shaxsni ham, jinoiy qilmish sodir etib, qonun asosida javobgarlikdan ozod qilingan shaxsni qamrab oladi.

Jinoyatchi o'ziga xos xususiyatga ega shaxs bo'lib, qonunga itoat etuvchi fuqarolardan farq qiladi. Kriminalogiya tadqiqotlari shuni ko'rsatadiki, jinoyat qonunchiligini buzuvchi shaxsga xos bo'lgan hayotiy ehtiyoj, qiziqish, ma'naviy va huquqiy dunyoqarash oddiy odamlarnikidan faqr qiladi. Jinoyatchi shaxs- jamiyatda yashash jarayonida belgilangan me'yoriy tizim talablariga mos bo'lmagan ong va xatti-harakatlarni o'zida mujassamlashtirgan odam. Umuman olganda, jinoyatchi jamiyat a'zosiga xos bo'lgan odamiylik belgilariga

mos kelmagan xatti-harakatlar bilan ajralib turadi.

Jinoyatchi psixologiyasi esa bu jinoyatchilar va unda qatnashadiganlarning barcha jinoiy xatti-harakatlari, qarashlari, fikrlari, niyatlari, harakatlari va reaktsiyalarini o'rganuvchi sohadir. Shuningdek, u jinoyatchilikni oldini olish va unga qarshi kurashish va huquqbuzarni reabilitatsiya qilish bo'yicha o'rganilgan narsalardan foydalanishdan tashqari, jinoyatchining motivlari va shaxsini o'rganadi. Bularning barchasiga asoslanib, qamoqxonalarda, ruhiy salomatlik markazlaridajva sudlarda jinoyatchilikka aloqador shaxslar bilan suhbatlar o'tkazishda va huquqbuzarliklarning oldini olish dasturlarini ishlab chiqishda jinoyat psixologining figurasi ajralib turadi. Jinoyatchi psixologiyasi faqat zo'ravonlik asosidagi jinoyatlarnigina emas, balki jinoiy guruhlar tuzilishini psixologik xususiyatlarini ham ham o'rganadi.

Asrlar davomida nafaqat psixologlarni balki barcha huquqiy sohaga aloqador soha vakillarini inson nega jinoyat qilishi va jinoyat sodir etish vaqtida nega o'zini to'xtata olmasligi kabi savollarga javob qidirishadi.

Shaxs jinoyat sodir etayotgan etayotganda uning ichki psixofiziologik holatlari muhim rol o'ynaydi. Shaxs turli noqulay vaziyatlarga duch kelganda unda ichki va tashqi tormozlanish holati kuzatiladi. Ayni shu holatda bizda jinoyat sodir qilayotgan vaziyatda emotsiyalar qo'zg'alish holatiga keladi. Boshqacha qilib aytganda, bizdagi butun his-tuyg'ular ongsizlik holatiga o'tib ketadi va shuning natijasida miyamizda jinoyat sodir etish uchun turli motivlar paydo bo;ladi.

Shuni ham ta'kidlash joizki, inson qanchalik o'zini boshqara olsa, ya'ni, tarbiyalangan bo'lsa, u o'z emotsiyalarini shunchalik boshqaradi. Ammo shunday holatlar ham mavjudki, inson o'z emotsiyalarini boshqara olmay qoladi, boshqacha aytganda ongsizlik holatiga tushadi. Bunday holatlar aslida kuchli jahl chiqishi oqibatida affekt holatiga tushganda sodir bo'ladi. Lekin bu bilan jinoyat tezda emas, balki uzoq vaqt to'planib kelingan salbiy emotsiyalar natijasida sodir bo'lishi mumkin. Kuchli affekt yoki jahl chiqganda fikrlar torayada, miyada jamiyat qonun-qoidalariga mos kelmaydigan tushuncha va tasavvurlar paydo bo'ladi.

Shuningdek, ko'plab xalqlar tasavvurida noto'g'ri bir steriotip shakllangan. Ya'ni "Jinoyatchining bolasi jinoyachi bo'ladi". Ammo bu steriotip xato hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, jinoyatchining huquqbuzarlik qilishiga irsiyatning ta'siri yo'q. Aksincha, ba'zi bir shaxslarni qurshab turgan muhit va undagi insonlarning noto'g'ri fikrlari natijasida unda jinoyatga moyillik oshishi mumkin. Bunday holatlarni oldini olish uchun esa, psixologlar jamiyatda yashovchi shaxslar ongiga so'g'lom fikrlarni singdirishi lozim.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, shaxs jinoyatchi bo'lib tug'ilmaydi. U irsiyat orqali ham o'tmaydi. Jinoyatchilik ta'lim tarbiya, atrofdagi insonlar ta'siri, ota-ona, do'stlar, qarindoshlar, referent guruhlar bilan bo'lgan munosabatlar, atrof-muhit ta'sirida kelib chiqishi mumkin. Bundan tashqari shaxsiy qiziqish, ehtiyoj, iradasizlik ham jinoyatni kelib chiqishiga sabab bo'la oladi. Shunday ekan, jinoyat o'z- o'zidan kelib chiqmaydi. Ya'ni turli xil omillar va motivlar uni sodir bo'lishiga olib keladi.

References:

1. M.A,Maxsudova. “Yuridik psixologiya” Namangan 2007.27-29 betlar.
2. Richard N.Kocsis. “Amaliy jinoyat psixologiyasi: sud xulq-atvori fanlaari uchun qo’llanma”. Charlz Tomas noshiri. 2009-yil 7-10 betlar
3. Endryus D.A. Bonta, Jeyms (2010) “ Jinoiy xatti-harakatlar psixologiyasi”. 2010. 4-15 betlar